



**KO'ZI OJIZ BOLALARNI IJTIMOY HAYOTGA INTEGRATSIYALASHDA  
KLASTER SUBYEKTLARINING HAMKORLIGI**

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti  
Maxsus pedagogika kafedra o'qituvchisi  
Xusnuddinova Zulayho Xamidullayevna  
Chirchiq davlat pedagogika universiteti*

*Maxsus pedagogika: tiflopedagogika yo'nalishi  
3-bosqich talabasi Tojiakhmedova Shirina Tohirjon qizi*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15254927>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada ko'zi ojiz bolalarni ijtimoiy hayotga integratsiyalashda klaster subyektlarining hamkorligi yoritilgan. Muallif ijtimoiy tashkilotlar, xususan, mahalla, oila, tibbiyot birlashmalari, xayriya jamg'armalari va ta'lim muassasalarining o'zaro hamkorligini tahlil qilgan. Har bir subyektning alohida vazifalari ko'rsatilgan holda, ularning ko'zi ojiz bolalar uchun moslashtirilgan ta'lim muhitini yaratishdagi ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, tiflotexnik vositalar, metodik yordam, psixologik qo'llab-quvvatlash hamda malaka oshirish kurslarining tashkil etilishi orqali inklyuziv ta'lim samaradorligi oshirilishi ta'kidlangan. Maqolada ijtimoiy tashkilotlarning birgalikdagi harakati natijasida ko'zi ojiz bolalarning jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyalashiga erishilishi mumkinligi asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** Ko'zi ojiz bolalar, Inklyuziv ta'lim ijtimoiy tashkilotlar, integratsiya, tiflotexnika, psixologik yordam, oila, mahalla, ta'lim muassasalari, pedagogik yondashuv, Brayl alifbosi.

Inklyuziv ta'lim – barcha bolalar, jumladan alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan bolalar uchun teng sharoitlar yaratishga qaratilgan ta'lim tizimi hisoblanadi. Bu ta'lim tizimning ajralmas qismi ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarni sog'lom ko'ruvchi tengdoshlariga qo'shish. Shu bilan birga umumta'lim muassasalarida ularga qulay va mos sharoitlarni yaratishdir. Bu yo'nalishda jamoat tashkilotlarining roli muhim. Ular nafaqat bolalarga, balki ularning ota-onalariga, o'qituvchilariga va ta'lim muassasalariga ham uslubiy, moddiy va psixologik yordam ko'rsatishadi[3].

Inklyuziv ta'lim bugungi kunda tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan ta'lim tizimlaridan biridir. Ushbu tizimni o'qituvchilarga, ota-onalarga va keng jamoatchilikka tanishtirish hozirgi kunda bizning muhim vazifalarimizdan biri hisoblanadi. Bu jarayonni samarali amalga oshirish uchun ijtimoiy tashkilotlarning hamkorligini yaratish zarur. Ijtimoiy tashkilotlarning hamkorligida har bir subyektnig roli va bajarishi kerak bo'lgan vazifalarni aniq bilib olish talab etiladi.

Quyida ko'zi ojiz bolalarni inklyuziv ta'limga integratsiyalashda ijtimoiy tashkilotlarning hamkorligi tuzilmasini taqdim etamiz.

- Ta'lim tashkilotlari
- Mahalla va oila
- Hayriya jamg'armasi
- Respublika tashxis markazi
- Tibbiyot birlashmasi

Mahalla jamiyati – aholi ijtimoiy hayotining shakllanish markazi bo'lib, aynan shu muhitda ko'zi ojiz bolalar aniqlanib, ularning ta'limga bo'lgan ehtiyojlari chuqur o'rganiladi. Shu asosda, bunday bolalarni erta aniqlash va oilalariga dastlabki yordam ko'rsatish muhim ahamiyat kasb etadi, chunki mahalla darajasida inklyuziv ta'lim bo'yicha tushuntirish ishlari olib borilib, ijtimoiy yordam, moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash choralari amalga oshiriladi. Shuningdek, mahalladagi faollar va ijtimoiy ishchilar orqali psixologik yordam tashkil etilib, bolalarning jamiyatga integratsiyasi mustahkamlanadi.

Oila har bir bolaning ilk ta'lim muhitini shakllantiruvchi poydevor sifatida ahamiyatga ega bo'lib, ko'zi ojiz bolalar uchun ota-onaning qo'llab-quvvatlashi bebaho hisoblanadi. Shu bois, ta'limga tayyorlash jarayonida maxsus pedagogik yondashuvlarni qo'llash, ota-onalarni



pedagogik va psixologik jihatdan doimiy qo'llab-quvvatlash zarurati paydo bo'ladi, bu esa uy sharoitida moslashtirilgan ta'lim muhitini yaratish orqali bolaning o'zlashtirish darajasini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi.

Tibbiyot birlashmalari esa ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarning salomatligini muntazam nazorat qilib, oilalarga kerakli yordam ko'rsatadi. Har bir ta'lim muassasasida ko'zi ojiz bolalar yiliga ikki marta tibbiy ko'rikdan o'tkazilishi, shuningdek, nogironlikning oldini olishga qaratilgan ma'ruzalar va suhbatlar orqali erta turmush qurish va qarindoshlar o'rtasidagi nikohning salbiy oqibatlari haqida keng jamoatchilikni xabardor qilish tizimining samarali ishlashini ta'kidlaydi.

Umumta'lim maktablarida inklyuziv ta'lim tizimini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilib, inklyuziv ta'lim laboratoriyasi tomonidan zamonaviy pedagogik texnologiyalar va metodlar ishlab chiqilib, o'qituvchilarga yo'riqnoma va tavsiyalar yetkaziladi. Shu bilan birga, inklyuziv ta'limga oid huquqiy hujjatlar mazmuni tushuntirilib, maxsus o'quv qo'llanmalari ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq etilishi jarayonida ta'lim tizimining sifatini oshirish ko'zda tutiladi [6].

Respublika tashxis markazi tomonidan inklyuziv va boshlang'ich tayanch korreksion sinf o'qituvchilari uchun malaka oshirish kurslari tashkil etilib, oliy ta'lim muassasalari ham ushbu jarayonga jalb etilib, bo'lajak o'qituvchilarga eng so'nggi yondashuvlar o'rgatiladi. Natijada, ular zamon bilan hamnafas holda ta'lim jarayoniga faol hissa qo'shish imkoniyatiga ega bo'ladi [2].

Xayriya jamg'armalari va ijtimoiy tashkilotlarning faol ishtiroki inklyuziv ta'lim rivojiga katta turtki berib, nafaqat moliyaviy yordam ko'rsatish, balki jamiyat ongini shakllantirish va imkoniyati cheklangan bolalar uchun teng imkoniyatlar yaratishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shu yo'nalishda, ko'zi ojiz bolalarni inklyuziv ta'limga integratsiyalashda ijtimoiy tashkilotlarning hamkorligi katta ahamiyat kasb etadi, chunki maktabgacha ta'lim va umumta'lim muassasalarida qulay shart-sharoit yaratish ularning jamiyatda o'z o'rnini topishida mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Ijtimoiy tashkilotlar ushbu jarayonda uslubiy yordam (maxsus darsliklar, Brayl alifbosida kitoblar va audiomateriallar yaratish), o'qituvchilarni tayyorlash (ko'zi ojiz bolalar bilan ishlash bo'yicha treninglar va seminarlar o'tkazish), psixologik yordam (ota-onalar va bolalarga moslashish jarayonida maslahat berish), moddiy-texnik ta'minot (tiflotexnika vositalari – elektron lupalar, Brayl printerlari, taktill kartalar bilan maktablarni jihozlash) va tadbirlarni tashkil etish (inklyuziv festivallar, ekskursiyalar, sport musobaqalari) kabi sohalarda hamkorlik qiladi.

Ta'lim muassasalari bilan hamkorlik doirasida ijtimoiy tashkilotlar loyihalar, masalan, murabbiylik dasturlari (o'qituvchilar va ota-onalar uchun malaka oshirish kurslari), resurs markazlari (inklyuziv ta'lim bo'yicha bilim va metodikalar bazasini yaratish), ko'ngillilar dasturlari (ko'zi ojiz bolalarni maktabda qo'llab-quvvatlash) va maxsus kurslar (muhitda mustaqil harakatlanish va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish) orqali ta'lim jarayonining sifatini oshirishga qaratilgan faoliyat olib boradi.

Shuningdek, ta'lim jarayonini moslashtirishda individual o'quv dasturlarini ishlab chiqish, o'quv materiallari va uslublarni o'quvchining o'zlashtirish tezligi va uslubiga mos ravishda tanlash orqali samaradorlik oshiriladi. Shu bilan birga, ovoqli yordamchilar va taktill materiallar joriy etish, shuningdek, o'qituvchilarni tiflotexnika vositalaridan foydalanishga o'rgatish orqali ko'zi ojiz yoki zaif ko'ruvchi o'quvchilar uchun qulay va samarali ta'lim muhitini yaratish yo'lida katta yutuqlarga erishiladi.

Ushbu keng qamrovli chora-tadbirlar majmuasi nafaqat ko'zi ojiz bolalarning o'qish jarayonini yengillashtiribgina qolmay, balki ularning jamiyatda o'z o'rnini topishida mustahkam asos bo'lib, ularni zamonaviy ta'lim tizimiga muvaffaqiyatli integratsiyalash imkonini beradi.

Ko'zi ojiz bolalarni inklyuziv ta'limga integratsiyalashda ijtimoiy tashkilotlarning roli beqiyosdir. Ular ta'lim muassasalari bilan hamkorlik qilib, moslashuvchan va samarali o'quv jarayonini tashkil etishga yordam beradi.



MAKTABGACHA TA'LIM TARAQQIYOTI, MUAMMO YECHIM VA  
ISTIQBOL” Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Andijon. 9-10 aprel  
2025-yil



Inklyuziv ta'limni rivojlantirishdagi asosiy vazifa moddiy va ijtimoiy to'siqlarni bartaraf etish, o'qituvchilar malakasini oshirish va bag'rikeng jamiyatni shakllantirishdir. Hamkorlikning kengayishi esa har bir bolaning sifatli ta'lim olishiga imkon yaratadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1.Qodirova, F. U., & Xusnuddinova, Z. X. (2023). Maxsu pedagogika.
- 2.Qodirova, F. U., & Xusnuddinova, Z. X. (2024). Tiflopsixologiya.
- 3.Qodirova, F. U., & Pulatova, D. A. (2023). Inklyuziv ta'lim: nazariya va amaliyot.
- 4.Xusnuddinova Z. (2022). Corrective pedagogy for blind children cluster mechanisms to increase work efficiency. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, 12(2), 68-70.
- 5.Zulayho X. (2022). Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan korreksion ishlarni tashkillashtirishda ilk qadamni tashlash. *Ijtimoiy fanlarda innovasiya onlayn ilmiy jurnali*, 80-82.
6. Xusnuddinova Z. X. (2022). Increasing the profitability of the learning environment through the organization of adaptive learning. *NeuroQuantology*, 1(20), 1217-1224.